

## FRANSUZ TILINING NAZARIY GRAMMATIKASI

**Abduqahhorov Abdukarim**

Mirzo Ulug'bek nomidagi  
O'zbekiston Milliy universiteti  
Xorijiy filologiya fakulteti talabasi.

**Abstrakt:** Mazkur maqolada XVI-XVIII asrlardagi tilshunos olimlarning fransuz tili orfografiyasiga oid ilmiy-nazariy qarashlari o'rganildi va ularga munosabat bildirildi. Shu bilan birga bu asrlarda orfografiyaga oid olimlar tomonidan qilingan juda ko'plab o'zgarishlar aniqlandi va jadvalga solinishi natijasida ular o'rtasidagi differensial hamda o'xshash jihatlari aniqlandi.

**Kalit so'zlar:** orfografiya, orfoepiya, uyg'onish davri, kommunikativ vazifasi, etimologiya, nutq tovushlari, fonetika, tovush, tilshunoslik, diskurs, og'zaki nutq, fonetik hodisa, grafema, morfema, nutq organlari.

**Kirish:** Imlo yoki orfografiyaga faqat so'zlarni yozish usuli emas, balki, so'zlashuv tilidagi so'zlarni transkripsiya qilish uchun standart sifatida ko'riladigan qoidalar va foydalanish to'plami sifatida qarash kerak. O'rta asrlarda, ya'ni XII-XIII asrlarda, yozuv mohiyatan og'zaki sivilizatsiyada ozmi-ko'pmi beqaror xotiraning o'ziga xos yordamchisifatida qaralar va uning asoslari mohiyatan fonologik bo'lib, kamchiliklar va ziddiyatlarga ega edi. Jahon tilshunosligidagi ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, asrlar davomida ko'plab grammatiklar, filologlar, fonetiklar, adabiyotshunoslar, tilshunoslar va qolaversa o'qituvchilar tomonidan bir necha bor soddalashtirish, o'zgartirish, isloh qilish bo'yicha bir qancha urinishlarni amalga oshirgan bo'lsa-da, ko'zda tutilgannatijaga erisha olmadi. Biz fransuz tilida 842 yilda lotin-roman ikki tilliligi sharoitida yozilgan "Strasburg qasamyodlari" ni imloning boshlanishi sifatida bilamiz.

**Asosiy qism:** Fransuz nazariy grammatikasining asosiy muammolari yoritilgan bo'lib, munozarali masalalar atrofida kechgan ilmiy bahslarning mohiyati batafsil ochib berilgan. Bunda nafaqat fransuz filologiyasiga doir mumtoz asarlar, shuningdek, bu sohadagi eng yangi tadqiqotlar ham e'tiborga olingan. Grammatik hodisalar tahlili asosida vazifaviy-mazmuniy yondashuv yotadi. Leksika va grammatikaning o'zaro munosabatiga, so'z turkumlari, transpozitsiyasiga, morfologik shakl va sintaktik qurilmalarining birlamchi va ikkilamchi vazifalarini aniqlashga, fikr nazariyasiga, gapning kommunikativ va pragmatik jihatlarga, matn nazariyasi unsurlariga katta e'tibor qaratiladi. Boblar bo'yicha fransuz tilida berilgan qisqacha xulosalar va fransuz terminologik muqobillar bilan keltirilgan mufasal ko'rsatkich talablarga seminar darslariga tayyorgarlik ko'rishda hamda malakaviy-bitiruv ishlari yozishda asqotishi mumkin.

Ushbu bo'limdan asosiy maqsad jahon tilshunosligida "grammatikalizatsiya nazariyasi" va uning o'rganilish darajasi xususida fikr yuritish va tilshunoslarning bu sohaga tilshunoslikning qaysi qatlami, ya'ni sathi nuqtai nazaridan yondashuvi borasida fikr yuritmoqchiimz.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining bugungi davriga qadar so'z turkumlariga xos analitik va sintetik unsurlarni atroflicha o'rganish borasida salmoqli yutuqlarga erishilgan. Buni Fransuz va o'zbek tilshunosligi misolida ham kuzatish mumkin. Aynan ana shu yutuqlar tufayli bugungi kunda tilda sintagmatik jarayonni yuzaga chiqaruvchi analitik va sintetik usurlarni sistemaviy

yondashuvlar asosida yanada chuqurroq ilmiy mushohada etish uchun zamin hozirliandi. Zotan, bunday yondashuv quyidagilarga olib keladi.

Birinchidan, eng muhim til belgisi bo'lgan grammatik leksemaning sintagmatik qurshovdagi tabiatini yorqin tasavvur etishda muhim hisoblanadi.

Ikkinchidan, mustaqil semali leksemlarning o'z ma'nosini yo'qotgan holda, dastlab analitik, so'ngra sintetik qiyofa kasb etishi bilan bog'liq murakkab tarixiy-tadrijiy jarayonga doir ko'plab masalalarni yanada yorqinroq tasavvur etishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Bu jaryonga aloqador masalalarni chuqur tadqiq etish, tilning morfologogik strukturasiyagina aloqador bo'lmay, balki uning fonetik, leksik-semantik va sintagmatik sathlarida lingvistik, ekstralingvistik omillar ta'siri ostida yuz beradigan sifat o'zgarishlarini atroflicha tavsiflashni ham talab qiladi. Bu esa til tizimining muhim uzvi bo'lgan leksemani fonetik, semantik va grammatik jihatdan o'zgargan holda morfologik sathga ko'chish jarayoni, grammatik ma'noning yangilanish darajasi bilan aloqador ko'plab masalalar xususida aniq xulosalar chiqarish imkonini beradi.

Tilning morfologik sathiga daxldor sintetik va analitik unsurlarga nisbatan yangicha ilmiy - nazariy yondashuvlar, zamonaviy tilshunoslikka "grammatikalizastiya hodisasi" deb nomlanuvchi yangi bir atamaning ilmiy muomalaga kirib kelishi uchun zamin hozirladi. Jumladan, 1912 yilda Fransuz tilshunosi A. Meye leksemlarning grammatik jarayonga ko'chishi bilan bog'liq masalalarni chuqur tahlil etgan holda mazkur atamani birinchi bo'lib iste'molga kiritdi. Grammatikalizastiya hodisasini ilmiy jihatdan keng miqiyosda tadqiq etish esa XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi.

Grammatik birliklar va ularning kelib chiqishi bilan qiziqish XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab kuchaydi. Xususan, P.Xopper va E.Klosslarning "Grammatikalizastiya" nomli asarining chop etilishi shundan dalolat beradi. Ushbu tadqiqotda grammatikalizastiya hodisasi keng ma'noda talqin etilgan bo'lib, unda har qanday mustaqil leksemlarning sintagmatik aloqaga kirishuvi grammatikalizastiya hodisasi bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy" grammatikalizastiya nazariyasi"ning asosiy tadqiqot yo'nalishiga aylanganining isbotini nemis tilshunosi Kristian Lemanning 1982 yilda nashr etilgan "Grammatikalizastiya haqida mulohazalar" nomli monografiyasi orqali ko'rish mumkin.

Shundan buyon bir qancha tilshunos olimlar ushbu muammo xususida ko'plab tadqiqot ishlari olib bordilar. Xususan, B.Xayn, P.Xopper, E.Traugot, J.Baybi va boshqalar o'zlarining talaygina monografiya va maqolalari bilan zamonaviy "grammatikalizastiya nazariyasi"ga o'z hissalarini qo'shdilar. 100 Ular o'z asarlarida asosan grammatikalizastiya hodisasining jarayoni bilan bog'liq muammolarni tadqiq qilishga harakat qilganlar. Grammatikalizastiya muammosi bo'yicha ish olib borayotgan tilshunoslarning aksariyati nemis tilshunoslari bo'lib, hozirgi kunda ularni grammatikalizastiya bo'yicha "nemis maktabi" deb atashmoqda.

Shuningdek, grammatikalizastiya hodisasini modal fe'llar bilan bog'lab o'rganish holati ham tilshunoslarning diqqat markazida turadi. Xususan, grammatikalizastiyaning turli xil mezonlarini – semantik umumiylik darajasi, formal redukstiya, paradigmatic qatorga qo'shilish kabilar modal fe'llarni to'liq

ma'noli leksemlardan tortib, grammatik ko'rsatkich qatoriga kiritishga imkon beradi. Fransuz tilida *devoir*, *pouvoir* kabi modal fe'llar asosiy morfosintaktik sinfni tashkil etadi. Bu borada

B.Xanzen o'zining "Modal fe'llar va grammatikalizastiya sarhadlari" nomli maqolasida batafsil to'xtalib o'tgan.

Grammatikalizastiya hodisasi til tizimida mustaqil leksik ma'noni taqozo qiluvchi lisoniy unsurlarning nutqda grammatik ma'no ifodalashga moslashishi bilan bevosita bog'liqdir. Shuni ham aytish kerakki, til unsurlarining grammatikalizastiyalashuvi nutqda o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Bunda evolyustion taraqqiyot kuzatiladi. N.A.Baskakovning ta'kidlashicha, til unsurlarining, jumladan, mustaqil so'zlarning grammatikalizastiyalashuvi eng avval ularning ko'makchi so'zga aylanishi hamda affiks qiyofasiga kirishi bilan bog'liq tarixiy evolyustion jarayon ekanligi shubhasizdir.

### Xulosa

Fransuz nazariy grammatikasi muammolari va uning ilmiy muhokamalari, filologiya sohasidagi yangi tadqiqotlar bilan ta'minlangan. Grammatik hodisalar tahlili mavzusida vazifaviy-mazmuniy yondashuvlar ilmiy bahslar ustida yoritilgan.

Tilning morfologik sathiga daxldor sintetik va analitik unsurlarga nisbatan yangicha ilmiy-nazariy yondashuvlar katta e'tibor qaratilgan. Tilshunoslik tarixida derivastiya atamasi, grammatik birliklar va grammatikalizastiya hodisasi kabi muhim muddalar o'rganib chiqilgan.

Grammatikalizastiya hodisasi Fransuz va o'zbek tilshunosligida ham muhimdir va tilshunoslarning uning tushunchalarini chuqur tushunishiga erishilgan. Xuddi shunday, zamonaviy grammatikalizastiya nazariyasi ustida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan va bu soha bo'yicha xususan B.Xayn, P.Xopper, E.Traugot, J.Baybi kabi olimlar muhim hissalar qo'shib borishmoqda. Ushbu muammolarni yaxshi tushunish va ularning nazariy va amaliy jihatlarini chuqur o'rganish tilshunoslikning rivojiga muhim hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Абдушукурова З., М.Нишонов ва б. Manuel de Français "Opinion originale I". Тошкент, 2013.
2. Абдушукурова З., М.Нишонов ва б. Manuel de Français "The ou café" Module I. Тошкент, 2010.
3. Абдушукурова З., М.Нишонов ва б. Manuel de Français "The ou café" Module II. Тошкент, 2010.
4. Никольская Е. К., Гольденберг Г. Я. Грамматика французского языка. М., 1982.
5. Попова И.Н., Казакова Ж.А., Manuel de français, часть 1., М., 2007.
6. Catherine Dollez, Ivana Vasiljevic, Annie Berthet, Judith Humery Alter égo I, Hachette Livre 2008.
7. Sadullaeva N., Sapaeva D. Analysis of Eponyms in the Terminology of Dermatovenerology //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 452-459.
8. Sadullaeva, N., & Bakhtiyorova, M. (2021). Reflection of Onomastic Principles in Naming. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 3001-3007.
9. Sadullaeva N., Burieva U. The Peculiarities of Incomplete Sentences in Modern English //Annals of the Romanian Society for Cell Biology. – 2021. – С. 3008-3020.
10. Sadullaeva S., Arustamyan Y., Sadullaeva N. Shifting the assessment paradigm from knowledge to skills: Implementation of new appraisal procedures in EFL classes in Uzbekistan //International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering. – 2019. – Т. 9. – №. 1. – С. 4943-4952.

11. Arustamyan, Y., Siddikova, Y., Sadullaeva, N., Solieva, M., & Khasanova, N. (2020). Assessment of Educational Process and its Organization. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 573-578.
12. Nilufar S., Elvira A. GENDER SPECIFICITY OF PEDAGOGICAL DISCOURSE //INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS. – 2023. – T. 3. – №. 08.05. – С. 187-190.
13. Gulnoza K., Sadullaeva N. LINGUISTIC FEATURES OF GLUTTONIC DISCOURSE.
14. Djafarova, Dildora, Yaxshiboyeva Nodira, and Abdullayeva Zulfiya. "Socio-Cultural Memory and Its Reflection In French Phraseology." *Journal of Positive School Psychology* (2022): 2883-2889.
15. Yaxshiboyeva, Nodira. "Reconstruction of coloristic expressions in erkin azam's" noise" and" pakana's love"." Конференции. 2021.
16. Ilhomovna, Djafarova Dildora, and Bobokalonov Odilshoh Ostonovich. "Interaction of Language Games in the Articulation of “Historical Memory” Within French and Uzbek Phraseology." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.1 (2024): 348-354.
17. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and J. A. Yakubov. "Archaic Phraseological Units as Windows into “Historical Memory” in French and Uzbek Linguistic Traditions." *American Journal of Public Diplomacy and International Studies* (2993-2157) 2.1 (2024): 163-169.
18. Ilhomovna, Djafarova Dildora, Bobokalonov Odilshoh Ostonovich, and Yaxshiboyeva Nodira Ergashovna. "Contemporary Usage of Archaic Phraseological Units Expressing “Historical Memory” In Uzbek and French Languages." *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769) 2.2 (2024): 371-377.
19. Ilhomovna, Djafarova Dildora. "Phraseological Units Expressing" Memory"/" Mémoire" in Linguistics and their Analysis through Texts." *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development* 2.11 (2023): 490-492.
20. Яхшибоева, Нодира. "Таржима жараёнида маданиятлараро мулоқотнинг социолингвистик хусусиятлари." *Академические исследования в современной науке* 2.17 (2023): 165-169.
21. Иногамова, Ф. М., and Н. Э. Яхшибоева. "Фразеологик маънонинг конвенциаллиги." *Academic research in educational sciences* 3.5 (2022): 1176-1182.
22. Яхшибоева, Н. (2023). Туристический дискурс как один из особых видов институционального дискурса. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(6), 879-884.
23. Яхшибоева, Нодира. "The role of tourism terminology in french." *O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI*, 2023,[1/4] (2023).